

BIOLOGIYA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR.

Boboyeva Barchinoy Abdullajonovna

Farg'ona tumani 36- maktab

Biologiya fani o'qituvchisi

Annotasiya: *Maqolada biologiya fanini o'qitishda o'quv tarbiya ishlarini innovatsion texnologiyalar asosida yuqori darajaga ko'tarishga e'tibor berilgan. Darslarda nazariyani amaliyot bilan bog'lab borish hamda o'quvchilarning umuimiy foydali mehnatga yo'naltirish metodlari haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

Tayanch so'zlar: *Anatomiya, morfologiya, fiziologiya, ekologiya, paleontologiya, zoogeografiya, gelmintologiya, entomologiya*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday fikrlarni bildirgan :” Oliy ma'lumot olaman,o'z ustimda ishlab, ilmli bo'laman ,degan , yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart.” Sharq donishmandlari aytganidek :”Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros- bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir! “

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash va yangi zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida 2020-yil “ Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlandi . Hozirgi kunda ta'limning asosiy bosqichlari va prinsiplaridan kelib chiqib, barcha o'quv fanlarini,shu jumladan, biologiya fanini o'qitishda o'quv- tarbiya ishlarini innovatsion texnologiyalar asosida yuqori darajaga ko'tarishga alohida e'tibor berilmoqda. [1]

Biologiya fani o'simliklar, hayvonlar, bakteriyalar, zamburug'lar , odamni, hayotni o'rganuvchi fandır.U borliqdagi jamiki jonli narsalarni o'rgatadi.Buyuk mutafakkir A.Navoiy aytganidek:

Tuxm(urug') yerga kirib chechak bo'ldi,

Qurt jongdin kechib ipak bo'ldi.

Olamlarning borligi-yu yo'qligi ham biologiyadir.Shuning uchun maktabda yer kurrasi, o'simliklar,hayvonot olami, inson olami ancha keng o'rganiladi.Oddiy yerda yotgan xas ham, bir kichik novda yoki barg ham yoki inson tanasining o'zi ham biologiya darslarida o'rganuvchi tabiiy ko'rsatma bo'la oladi.O'quvchi qachonki hayotda ko'rgan-bilganini fan bilan bog'lab o'rganar ekan,unda shu fanni ongli bilishga talab oshadi.

Tabiat – onamiz. Biz uning bag'rida o'sib-ulg'ayamiz.O'quvchilarga unga mehr bilan ongli munosabatda bo'lmas ekanmiz, u,albatta, bir kuni o'z o'chini olishini bilishni anglatishimiz zarur.

Zoologiya- biologiya fanining tarkibiy qismlaridan biridir.

[2] Zoologiya(zoon-hayvon,logos-fan)- hayvonlarning tuzilishi,hayot kechirishi ,ko'payishi va rivojlanishini o'rganadigan fan. Zoologiya kompleks fan bo'lib, u o'z

tarkibiga hayvonlar anatomiyasi, morfologiyasi, fiziologiyasi, sistematikasi, ekologiyasi, shuningdek, paleontologiya, zoogeografiya, evolyutsion morfologiya kabi fanlarni o'z ichiga oladi.

Zoologiya fanini amaliy o'rganish orqali o'quvchilarni gelmintologiya, entomologiya, baliqchilik, parrandachilik, chorvachilik va tibbiyot yo'nalishidagi kasblarga yo'naltiriladi.

[3] Zoologiya fanini o'qitishda faqat bitta yoki ikkita darsni o'tish bilan nazariy bilimlarni amaliy ishlar bilan bog'lab borib o'quvchilarda o'quv va malakalarni hosil qilib bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchi dastur va darslik asosida butun sinfni hisobga olgan holda rejallashtirib olishi lozim.

Rejallashtirilgan ishlarni muntazam ravishda bajara borib va uni yakunlash orqali asosiy maqsadga erishiladi.

Zoologiya fanini o'qitishda dasturga muvofiq o'quvchilar sodda hayvonlardan tortib, to yuqori sut emizuvchilargacha bo'lgan hayvonlarning tiplari, sinflari, turkumlariga oid bir necha hayvonlar vakillarining hayot kechirishlari, ko'payishi va rivojlanishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Zoologiya fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar xalq xo'jaligi va qishloq xo'jaligiga foyda keltiruvchi va zarar yetkazuvchi hayvonlar haqida to'liq fikr yurita oladigan bo'ladilar.

Айниқса қишлоқ хўжалик екинларига zarar yetkazuvchi hasharotlarning hayotini o'rganish va ularga qarshi kurashish choralarini bilish hamda turmushda tadbiriq qila bilish uchun sinfda olgan nazariy bilimlarini maktab oldi o'quv tajriba uchastkasi, fermer xo'jaliklarining ekin ekilgan dalalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bilan bog'lab o'tishning ahamiyati kattadir. Bu esa o'quvchilarning qishloq xo'jalik o'simliklari zararkunandalarining hayotini to'liq o'rganish va ularga qarshi kurashish tadbirlarini to'liq bilib olishlariga imkon beradi.

“Parda qanotlilar turkumi” mavzusi o'rgatilayotganda ham o'quvchilar jamoa xo'jaliklarda boqilayotgan asalarilar jamoasi bilan tanishadilar. Bunda ular nazariyani amaliyot bilan bog'laydilar.

“Parrandachilik mavzusini o'rgatilayotganda parrandachilik fermalariga ekskursiya tashkil qilish natijasida o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan nazariy bilimlari amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lab olib boriladi.

“Baliqlar” mavzusi o'tilayotganda o'quvchilar maktab tajriba uchastkasida tashkil qilingan jonli burcahadagi akvarium jamoa baliqchilik fermasidagi baliqlarni kuzatish orqali olgan nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar. Hatijada ularning fanga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib biologiya darslarida nazariyani amaliyot bilan bog'lash natijasida kelgusida o'quvchilarning kasb tanlashlari, mustaqil mehnat qilishlari va mehnatni sevadigan, tabiat yaratgan ne'matlarga mehr-muhabbatli, uni asrab-avaylovchi inson bo'lib yetishishlariga zamin yaratiladi. [3]